

ISNN
2181-3027



56

International research journal

PEDAGOGS

Volume-56 Issue-2 April-2024

Issue-



PEDAGOGLAR.UZ

Scientific Research Center

PEDAGOGS

Legal, medical, social, scientific journal

Volume-56

Issue-2

April – 2024

IN ALL AREAS



**ICI JOURNALS
MASTER LIST**

**YANGI O’ZBEKISTON TARAQQIYOTIDA JADIDCHILIK
G’OYALARINING AHAMIYATI**

Rizaev Nodir Sobirovich

*Mustaqil tadqiqotchi, Buxoro davlat universiteti,
Buxoro, O’zbekiston*

Kalit so’zlar: jadid gazetasi, renessans, islohotlar, ma’naviyat, ilm-fan, muharrir

Annotatsiya: Mazkur maqolada Yangi O’zbekiston taraqqiyotida jadidchilik g’oyalarining ahamiyati mutafakkirlarning ma’rifatparvarlikka asoslangan asarlari asosida tahlil qilingan.

**ЗНАЧЕНИЕ ДЖАДИДСКИХ ИДЕЙ В РАЗВИТИИ НОВОГО
УЗБЕКИСТАНА**

Ризаев Нодир Собирович

Независимый исследователь, Бухарский государственный
университет, Бухара, Узбекистан

Ключевые слова: джадидская газета, ренессанс, реформы, духовность, наука, редактор

Резюме: В данной статье проанализированы значение джадидских идей в развитии Нового Узбекистана на основе просветительских произведений джадидских мыслителей.

**SIGNIFICANCE OF DJADIDI IDEAS IN THE DEVELOPMENT
OF THE NEW UZBEKISTAN**

Rizayev Nodir Sobirovich

Independent researcher, Bukhara State University,
Bukhara, Uzbekistan

Keywords: Jadidi newspaper, renaissance, reforms, spirituality, science, editor

Abstract: The following article analyzes the importance of Jadid ideas in the development of New Uzbekistan based on the works of jadidi thinkers relying on the enlightenment

XIX asr oxiri XX asr boshlarida Turkiston o’lkasida shakllangan Jadidchilik harakati bu o’lkada tasodifan shakllanib qolgan harakat bo’lmay, balki ilmiy-ma’rifiy asoslarga ega, tarixiy manbalar va ildizlardan oziqlangan holda vujudga keldi va kuchli ijtimoiy, siyosiy va amaliy mohiyatga ega bo’lgan harakatga aylandi. Bu harakat bir tomonidan islom dinining asoslariga, uning ma’rifatparvarlik g’oyalariga, ikkinchi tomonidan ilg’or ilm-fan yutuqlariga tayanishni, islohotlar va milliy o’zlikni saqlab qolgan holda zamon kishisini tarbiyalashni o’z oldiga maqsad qilib olgan. Bu harakatni yuzaga keltirgan yana bir omil kolonial hukumat amaldorlarining Rossiyadagi musulmonlarga bepisandlik qilishi va musulmon aholini huquqlaridan mahrum qilishi

va buning natijasida mahalliy musulmon qatlamida paydo bo‘lgan xo‘rlik hissi edi. Hozirgi inson kapitali, uning kamoloti, taraqqiyoti g’oyalari jadid mutafakkirlarning asarlaridayoq ilgari surilgan edi.

Jadidchilikning o’ziga xos fenomen, nodir hodisa ekanligi nimada ko’rinadi? Bu birinchi navbatda, jadidlarning nafaqat Sharq, balki G’arb madaniyatini ham egallah asosida shakllangan yuksak aqliy-ma’naviy zakovatida namoyon bo’ladi. Ularning deyarli barchasi oliy diniy ma’lumot olib, Navoiy Jomiy, Fuzuliyning yuksak insonparvarlik g’oyalari bilan sug’orilgan asarlari, o’rtasidagi Sharq mutafakkirlarining falsafiy qarashlarining ta’siri ostida tarbiyalanib, o’z intellektini ham Sharq, ham G’arb madaniyati yutuqlari bilan boyitdilar. Bu jadidlar falsafiy dunyoqarashining o’ziga xos xususiyatini belgilab berdi.

Lekin mavjud hokimiyat ma’rifatparvarlar amalga oshirishi kerak bo‘lgan ulkan islohotlarga jiddiy qarshilik qilishdi. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek “*Tarixda ikki buyuk Renessansga zamin bo‘lgan mintaqamizda uchinchi Renessansni aynan jadid ajdodlarimiz amalga oshirishlari mumkin edi. Afsuski, mustabid tuzum ularning ezgu g’oya va amaliy harakatlarini to’la ro‘yobga chiqarishga imkon bermadi*”[1].

O’lkada jadidlar o’z targ’ibot yo’nalishlarini asosan matubot orqali ifoda qilishni maqsad qildilar. Shuningdek tashkil etilajak turli gazetalar orqali aholi savodxonligini va ularning ma’naviy axloqiy qarashlarni o’zgartirish asosiy vazifa ekanligini belgilab oldilar.

Turkistonda dastlabki jadid matbuot organi – “Taraqqiy” gazetası Toshkent shahrida Ismoil Obidov muharrirligida 1906-yil 27-iyundan e’tiboran chop etila boshlangan. Uning tahriri O’ratepa ko’chasidagi 97-uyda joylashgan edi. Jadid matbuotining poydevori 1906 yilda Ismoil Obidiy tomonidan ta’sis etilgan “Taraqqiy” gazetasidir. Gazetaning juda mashhur bo‘lib ketgan birinchi sonida “Toshkent. 14 iyun” maqolasi chop etilgan bo‘lib, unda muharrir nashrning maqsadi va vazifasi haqida tushuntirish beradi. **“Turkiston eli o’z maqsadlariga erishishi uchun eng avvalo ichki nizolarga barham berishi kerak”**, deb qayd etgan Obidiy.

Gazetaning bir yillik obuna bahosi 5 so‘m bo‘lgan, bir donasi 50 tiyindan sotilgan. Gazeta to‘rt sahifada chop etilib, unda e’lonlar ham bosilgan. “Taraqqiy” gazetasining shiori **“Najot: maslakda sabot, to‘g‘rilikda ijobat”** deb nomlangan. Nashr ilmiy, adabiy, siyosiy, fanga oid tijoriy gazeta bo‘lgan. Gazetaning atigi 20 soni chiqib, rus hokimiyyati tomonidan yopilgan, muharriri qamoqqa olingan. Keyinroq M.Abdurashidxonov muharrirligida “Xurshid” gazetası chiqarila boshlangan. 1907-yil 21-avgustda “Tujjor” gazetası chiqqan. Ammo ularning barchasi 5-6 ta soni chiqqach, faoliyati to‘xtatilgan. Gazetalar saqlanib qolmagan.

Taraqqiy”da bosilgan feleton va boshqa materiallarda tanqidiy yo’nalish, fosh qilish ruhi kuchli bo‘lgani uchun u o’sha davrning eng ommaviy nashriga aylangan va jamoatchilik fikriga katta ta’sir ko’rsatgan. Munavvarqori Abdurashidxonov, Mahmudxo’ja Behbudiy, So’fizoda, Nozimaxonim, Bahrombek Davlatbekov, Shokir Muxtoriy, Zarif Xoliqiy va boshqalarning ommaga milliy ozodlik, taraqqiyot g’oyalari targ’ib va tashviq qiluvchi asarlari “Taraqqiy” sahifalarida chop etib turilgan. “Taraqqiy” tutgan yo’l, maslagi va maqsadi, unda chop etilgan asarlardagi

o’tkir tanqidiy ruh mustamlakachi ma’murlarga ma’qul kelmagan. 19-soni chiqqanidan so’ng “Taraqqiy” yopib qo’yilgan. Muharriri qamoqqa olinib, gazetasining mol-mulki musodara qilingan. “Taraqqiy”ning ilk soni chiqqan 27 iyun 1993 yildan buyon mamlakatimizda “matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni” sifatida nishonlanadi.

Shu o’rinda yoshlar tarbiyasi masalasi jadidlar ilmiy faoliyatida bevosita asosiy o’rin egallagan. Jumladan Abdulhamid Cho’lpon tomonidan salkam bir asr avval yozilgan “Taraqqiy” maqolasida o’z tarixiga qiziqmaydigan, o’z tilini hurmat qilmaydigan, o‘yinqaroqroq (hozirgi kunlarning ba’zi faollari tomonidan “ma’naviyatsiz”, “ma’naviyatdan uzoq” deya ta’riflanishi mumkin bo’lgan) yoshlar toifasi ko’rsatilgan.

Jadidlarning ko’zga ko’ringan namoyandalaridan biri Munavvarqori Abdurashidxonov “Bizning jaholat – jahli murakkab” sarlavhali maqolasida xalq orasidagi bid’at, xurofot odatlari tanazzulga xizmat qilayotganini ta’kidlaydi. 1906 yilning dekabr oyida Munavvarqori Abdurashidxonov “Xurshid”, Abdulla Avloniy “Shuhrat”, Ahmadjon Bektemirov “Osiyo” gazetalarini tashkil etib, yo’lga qo’yishdi. Ammo ularning barchasi 5-6 ta soni chiqqach, faoliyati to’xtatilgan. Abdulla Avloniy, tatar Ahmadjon Bektemirov va Munavvarqorilarning tashabbusi bilan tashkil etilgan “Shuhrat” va uning davomchisi “Osiyo” aynan yuqoridagi ayblov bilan yopildi [2, 34]. “Osiyo” gazetasi 1908-yil 21-may kuni taqiqlandi. Bu davrda Saidkarimboy Saidazimboev tarafidan “Tujjor” gazetasi nashr etilgan. Bu gazeta boshqa nashrlardan farqli ravishda o’zini hukumatga qarshi bo’lmagan va Rossiya davlatchiligi tarafdiri va dinga zarar keltirmaydigan gazeta deb e’lon qildi. Bunday dasturga ega bo’lgan “Tujjor” o’quvchilar orasida u qadar shuhrat topmagan va 36-sonidan so’ng obunachi yo’qligi sabab yopildi. 1908-yil may oyida “Tujjor”ning yopilishi bilan Turkistonda milliy mustaqil matbuot faoliyati tugatildi.

1909-1913 yillar oralig’ida birorta jadid gazetasining nashr etilishiga ruxsat berilmagan. Chunki rus imperiyasi jadidchilik harakatini o’ziga raqobatchi deb bilib, ularning faoliyatiga to’sqinlik qila boshladi. 1913 yilga kelibgina jadidlar otasi – Mahmudxo’ja Behbudiyning “Samarqand” gazetasi ochildi, bu milliy matbuotda ikkinchi bosqichning boshlanishi edi. Gazeta 45-sondan so’ng Behbudiyning moliyaviy qiyinchiliklari tufayli o’z faoliyatini to’xtatadi. To’lagan Xo’jamyorov (Tavallo) “Samarqand” gazetasi yopilgan kunni “milliy motam kuni” deb e’lon qildi. Birinchi o’zbek advokati Ubaydulla Xo’jayevning “Sadoi Turkiston” (gazetaning 66 soni chiqqan), tog‘-kon muhandisi Obidjon Mahmudovning “Sadoi Farg‘ona” gazetalari matbuotni bir pog‘ona yuqoriga olib chiqdi (gazetaning 123 soni chiqqan).

1913-yil 20-avgustdan boshlab Samarqandda, Behbudiylar tahriri ostida chiqa boshlagan “Oyina” jurnali, Ziyo Saidning e’tirof etishicha, turkistonlik jadidlarning “eng sevimli nashri”ga aylandi [2, 224]. “Oyina” nafaqat Turkistonda, Rossiya imperiyasiningt turli burchaklari, Eronda, Afg‘onistonda, Hindistonda va Turkiyada keng obunachilar tarmog’iga ega edi. Bu davrda mazkur jurnal turkistonlik taraqqiy parvarlarning o’ziga xos tashrif qog‘oziga aylanib qoldi. Gasprinskiy jurnalning birinchi soniga ta’rif berar ekan, qayd etadi: “Oyina” dasturi juda dolzarb; turkistonliklarning kundalik hayotlaridagi barcha muammolarni yoritishga qaratilgan”.

U maqolasining so‘ngida turkistonliklarga o‘z ona tillaridagi nashrni quvvatlash va “Oyina”ga obuna bo‘lishga chaqiradi. 1915-yil 15-iyunda “Oyina”ning 68-soni chiqishi bilan jurnal o‘z faoliyatini to‘xtatdi. Fitratning qayd eitishicha, “Oyina” o‘ziga o‘xhash boshqa jurnallar kabi o‘quvchilarini “xursand qila olmadi”; uning maqolalari jurnal o‘quvchilariga yoqmay qoldi. Lekin Fitrat ta’kidlashicha, bu ishni to‘g‘irlash mumkin edi. Buning uchun barcha turkistonliklar jurnalning dasturini mukammallashtirishda ishtirok etishlari kerak edi. O‘z navbatida, Behbudiy qo‘yilgan “ayblov”larga javoban o‘zini “oqlash” maqsadida “Oyina”da o‘quvchilarning jurnal tili va dasturi haqidagi turli maktublarini e’lon qildi.

Ular mana shu dastur asosida rus siyosiy agentidan gazeta nashr qilish uchun amirdan ruxsat olishga yordam berishni so‘radi. Shu tariqa Buxoro amirligida birinchi matbuot nashri paydo bo‘ldi. Bu Kogon (Yangi Buxoro)da 1912-yil 11-mart kuni birinchi soni chiqqan fors tilidagi “Buxoroi Sharif” gazetasi edi. Ushbu gazeta 1912-yil 14-iyulga qadar haftada bir marta, keyin esa haftada to‘rt marta nashr qilinadigan bo‘ldi. 1912-yil iyul oyidan “Buxoroi Sharif”ga ilova tarzida o‘zbek (turkiy) tilida “Turon” gazetasi nashr qilina boshlandi. Ushbu gazeta haftada ikki marta chiqib turdi va o‘sha yilning sentabr oyida mustaqil nashr sifatida faoliyat olib bordi [4, 32]. “Turon”ga muharrir qilib 1906-1911 yillarda Turkiyada tahsil olgan va Istanbuldagi buxoroliklar jamiyatining faol a’zolaridan biri bo‘lgan G‘iyos Usmonov tayinlandi. Ushbu ikki gazeta umumiy shaklda 2 600 obunachiga (“Buxoroi Sharif” – 800, “Turon” – 1 800) ega edi.

Jahon intellektual merosidagi Mahmudxo‘ja Behbudiyning **“Zamona ilmu fanidan bebahra millat o‘zgalarga poymol bo‘lur”**, Abdulla Avloniyning **“Tarbiya biz uchun yo hayot yo mamot, yo najot yo halokat, yo saodat yo falokat masalasidir”**, degan so‘zları bugun ham millatni uyg‘otuvchi da’vatdek jaranglab turibdi.

Jadid mutafakkiri G’ozi Yunus o‘zining “Eski maktablar haqinda” nomli she’rida shunday yozadi:

Ko‘z oching Turon eli, biz ilmsiz pomolmiz,
Ish agar bu yo‘lda ketsa ne bo‘lur ahvolimiz.
Yangi maktablar ochildi bizga lozimdur o‘qish
Ilm olsaq yaxshi bo‘lg‘ay bizning hama af’olimiz.
Eski maktab orqasida bo‘ldi Turkiston xarob
Ilmsizlik orasida bitguvsi islomimiz [5].

2023 yil 11—12-dekabr kunlari Toshkentda “Jadidlar: milliy o‘zlik, istiqlol va davlatchilik g‘oyalari” mavzusida ilmiy konferensiya bo‘lib o’tdi. Mazkur konferensiyada jadidlar ilmiy merosining jahon tamaddunidagi hissasi e’tirof etildi. Prezidentimiz 2023 yil 22 dekabrdagi o‘tkazilgan Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining kengaytirilgan yig‘ilishida jadid bobolarimizning milliy taraqqiyotni har tomonlama jadallashtirish, ziyoli va ijodkorlarni birlashtirishga daxldor tashabbuslari qatorida “Jadid” gazetasini ta’sis etish g‘oyasini qo‘llab-quvvatladi va ushbu nashrni yangi yilning birinchi kunida chop etish taklifini ilgari surdi. Jadidlar XIX asr oxiri – XX asr boshida musulmon modernist islohotchilari bo‘lgan. Ular o‘zini “taraqqiyarvar”, “ziyoli” yoki faqat “Yoshlar” deb atagan kishilar edi. Jadidlar ta’lim sohasini isloh qilish hamda maktablarda “usul ul-jadid” yoki “yangi usul”ni tatbiq qilish,

rivojlantirishga intilgan. Gazeta jadid bobolarimizning “**Tilda, fikrda, ishda birlik!**” degan qutlug‘ so‘zlarini shior qilib olgan.

2024 yilning ilk kunida “Jadid” nomli gazeta nashr etildi. Uning tashabbuskori Prezidentimiz aynan o‘zlarining nutqlarida xuddi shunday gazeta tashkil qilish kerak, degan fikrni ilgari surgan edi. Bu jarayonda “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasi negizida paydo bo‘lgan bu gazetaning xodimlari, jadidshunoslar, olimlar jiddiy ishladi va qisqa muddat davomida davlatimiz rahbarining topshirig‘i bajarildi. Prezidentimizning bu tashabbusini nafaqat biz – o‘zbek olimlari, balki xalqaro miqyosdagi jadidshunos olimlar, jadid adabiyoti, jadid madaniyati, jadid san’ati bilan shug‘ullanadigan barcha ziyo ahli qo‘llab-quvvatlamоqda. Nashrda O‘zbekiston xalq shoiri, atoqli ijodkor Iqbol Mirzoning “Muharrir minbari” rukni ostidagi “Birlashmoq davri” sarlavhali bosh maqolasida mazkur yangi nashrning mazmun-mohiyati, maqsad-muddaolari, yo‘nalishlari tahlil etilgan.

Bugun dunyoda yangilanayotgan O‘zbekiston sifatida e’tirof etilayotgan mamlakatimizda kechayotgan ma’rifiy islohotlarning jadid bobolarimiz g‘oya va intilishlari, maqsad-muddaolariga nechog‘li hamohang ekani teran, samimiyl, ravon, xalqchil tarzda ifoda etilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://president.uz/uz/lists/view/6007> Sh.M.Mirziyoyev. Jadidlar merosini o‘rganishga bag‘ishlangan Xalqaro konferensiya ishtirokchilariga. 06.03.2023
2. Маҳмудхўжа Беҳбудий. Танланган асарлар. Тузатилган ва тўлдирилган 2-нашр. -Тошкент, Маънавият 1999. 280 бет.
3. Абдулла Авлоний. Танланган асарлар. 2- жилдлик. 1- жилд. -Тошкент, Маънавият 1999. 272 бет.
4. Мунаввар Қори Абдурашидхонов. Танланган асарлар, -Тошкент, Маънавият 2003. 304 бет.
5. G‘ozi Yunus. Eski maktabalar haqinda // Ishtirokiyun. –1919-yil 25-iyun. –№ 129.

**SAMARALI MARKETING STRATEGIYALARI ORQALI O'ZBEKISTONNI
RAQOBATBARDOSH TURIZM YO'NALISHI SIFATIDA JONLANTIRISH**

Sotvoldiyeva Muyassar Xamid qizi

Toshkent kimyo xalqaro universiteti turizm yo'nalishi talabasi

Annotatsiya.

Ushbu maqolada biz O'zbekiston turizm sanoati salohiyati va istiqbollarini ko'rib chiqamiz, mamlakat o'zining noyob takliflarini namoyish etish va shiddatli raqobatbardosh global turizm maydonida o'zini eng yaxshi da'vogar sifatida ko'rsatish uchun samarali marketing tashabbuslaridan qanday foydalanishi mumkinligini o'rganamiz. Madaniy mo'jizalarni ta'kidlash, sarguzasht turizmini targ'ib qilish, barqarorlikka ustuvor ahamiyat berish va hamkorlik aloqalarini rivojlantirish uchun raqamli texnologiyalarni qo'llashdan tortib, O'zbekiston o'zining tarix va jozibaga boy mamlakatda haqiqiy tajribani izlayotgan zukko sayohatchilar uchun izlanuvchan manzil sifatidagi maqomini tiklashga tayyor.

Kalit so'zlar: marketing, raqobatbardosh turizm, sayyoqlik agentliklari, jahon turizmi, tarixiy obidalar.

Аннотация.

В этой статье мы изучаем потенциал и перспективы туристической индустрии Узбекистана, а также то, как страна может использовать эффективные маркетинговые инициативы, чтобы продемонстрировать свои уникальные предложения и позиционировать себя как главного соперника на жесткой конкурентной глобальной туристической арене. Узбекистан является популярным местом для взыскательных путешественников, ищущих подлинный опыт в стране с богатой историей и очарованием, готовой восстановить свой статус.

Ключевые слова: маркетинг, конкурентный туризм, туристические агентства, мировой туризм, исторические памятники.

Abstract.

In this article, we examine the potential and prospects of Uzbekistan's tourism industry, and how the country can use effective marketing initiatives to showcase its unique offerings and position itself as a top contender in the fiercely competitive global tourism arena let's learn from highlighting cultural wonders, promoting adventure tourism, prioritizing sustainability and leveraging digital technologies to foster partnerships, Uzbekistan is a sought-after destination for discerning travelers seeking an authentic experience in a country rich in history and charm is ready to restore its status.

TABLE OF CONTENTS / ОГЛАВЛЕНИЯ / MUNDARIJA

№	The subject of the article / Тема статьи / Maqola mavzusi	Page / Страница / Sahifa
1	KIRISH TURIZMI INDUSTRIYASIDA QADRIYATLAR VA YOSHNING AHAMIYATI	4
2	O'ZBEKISTONDA TURIZM XAVFSIZLIGI DARAJASI	9
3	PEDAGOGIK TA'LIM YO'NALISHLARIDA XORIJ TILLARINI O'QITISH AHAMIYATI	14
4	INGLIZ TILINI BOSHLANG'ICH SINFLAR KESIMIDA O'QITISHDA INNOVATSION METODLARDAN FOYDALANISH	18
5	KOMMUNIKATSION MUAMMOLARNING TURIZIMGA TA'SIRI. UZTELECOM KOMMUNIKATSION MUAMMOLAR YECHIMI	21
6	ИЧКИ ИШЛАР ОРГАНЛАРИДА МАҶНАВИЙ-МАҶРИФИЙ ИШЛАРНИ ТАШКИЛ ЭТИШ КОНЦЕПЦИЯСИНинг АҲАМИЯТИ	26
7	O'ZBEK TILIDA BA'ZI OSMON JISMLARINING O'ZLASHMA SO'ZLAR VA TASVIRIY VOSITALAR BILAN IFODALANISHI	31
8	YANGI O'ZBEKISTON TARAQQIYOTIDA JADIDCHILIK G'YOYALARINING AHAMIYATI	35
9	SAMARALI MARKETING STRATEGIYALARI ORQALI O'ZBEKISTONNI RAQOBATBARDOSH TURIZM YO'NALISHI SIFATIDA JONLANTIRISH	40
10	O'ZBEKISTONDA ZIYORAT TURIZIMI MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH	45
11	METEMATIKA DARSALARIDA FIZIKAVIY LABORATORIYA USLUBIDAN FOYDALANISH	50
12	HOW IMPORTANT IS ENGLISH LANGUAGE TEACHING IN VOCATIONAL SCHOOLS?	55
13	BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIGA TEXNOLOGIYA FANINI O'QITISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA DARS ISHLANMALARINING AHAMIYATI	58
14	OMONIMLARNING NEMISCHA-O'ZBEKCHA LUG'AT KITOBLARINI TUZISHDAGI MUO MMOLAR	62
15	INNOVATSION TA'LIM SHAROITIDA OLIY TA'LIM MUASSASASI TALABALARINI ZAMONAVIY O'QITISH METODLARI ORQALI KASBIY MAHORATINI OSHIRISHDA FOYDALANISH TAMOYILLARI	66
16	TEXNOLOGIYA TA'LIMIDA “XALQ HUNARMANDCHILIGI VA BADIY LOYIHALASH” FANINI O'QITISH ZARURATI	71
17	MA'RUDA MASHG'ULOTLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING O'RNI VA AHAMIYATI	74
18	RDB DASTGOHLARI	78
19	ICHKI TURIZIMNI RIVOJLANTIRISH	82

20	O'ZBEKISTONDA TURIZMNI MADANIYATI	86
21	O'ZBEKISTONDA MEHMONXONA TURIZMINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI	90
22	O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING TURIZM TO'G'RISIDAGI QONUNINING MAQSADI VA ASOSIY TAMOILLARI	94
23	O'ZBEKISTONDA TURISTLAR OQIMI O'SISHI VA TURISTIK OBYEKTLARNI RIVOJLANTIRISH	99
24	TURISTLAR VA TURISTIK FAOLIYAT SUB'YEKTLARINING HUQUQLARI VA QONUNIY MANFAATLARINI HIMoya QILISH	103
25	O'ZBEKISTONDA EKOTURIZMNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI	107
26	SAMARALI MARKETING STRATEGIYALARI ORQALI O'ZBEKISTONNI RAQOBATBARDOSH TURIZM YO'NALISHI SIFATIDA JONLANTIRISH	111
27	MAHALLIY TURIZMDAGI RIVOJLANISH VA KAMCHILIKLAR	115
28	GEPATIT TURLARI VA AHOLI ORASIDA UCHRASH HOLATI	120
29	O'ZBEKISTONDA TURIZM RIVOJLANISHIDA STILISTIKA SOHASINING O'RNI	124
30	TURIZMNING - O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDAGI TUTGAN O'RNI	128
31	O'ZBEKISTONDA "FASHION TURIZM" QANCHALIK RIVOJLANGAN VA UNING O'RNI	132
32	SHAXSIY MA'LUMOTLARNI HIMOYALASH	136
33	TURIZMNING - O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDAGI TUTGAN O'RNI	143
34	O'QUVCHILARGA SHARQ MUTAFFAKKIRLARI VA PEDAGOG OLIMLARINING BOLA TARBIYASI TO'G'RISIDAGI FIKRLARINI DARSdan TASHQARI FAOLIYAT JARAYONIDA RIVOJLANTIRISH	147
35	O'ZBEKISTONDA TURKIY DAVLATLARI BILAN TURIZM SOHASIDA HAMKORLIKNI RIVOJLANTIRISH	154
36	O'ZBEKISTONDA TARIXIY-MADANIY TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIY-IQTISODIY JIHATLARI	160
37	TURIZM SOHANISINI RIVOJLANTIRISHDA DAVLAT BYUDJET SIYOSATI	165
38	O'ZBEKISTONDA XALQARO TURIZMNI RIVOJLANTIRISH	170
39	УХОД ЗА ПОЖИЛЫМИ ЛЮДЬМИ, НУЖДАЮЩИМИСЯ В УХОДЕ НА ДОМУ	175
40	GERONTOPSYCHOLOGY AND ATTENTION	185